

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHDA BADIY OBRAZLARNING O'RNI****Inoyatova Dilnoza Qunonboy qizi***Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası**o'qituvchisi e-mail: dilnoza3300@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda badiiy obrazlarning tutgan o'rni pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Ayniqsa, she'riy matnlarning ramziy ma'nosi, obrazli ifodalar va poetik tuzilmalarning bola tafakkuriga ta'siri nazariy asoslar va amaliy dars tajribalari orqali ochib berilgan. Maqolada Jo'ra Rahimning "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" she'ri asosida tashkil etilgan dars tahlil qilingan, obrazli tafakkurni rag'batlantiruvchi metodlar tavsiya etilgan. O'qituvchining ijodiy yondashuvi va obrazli matn asosida tashkil etilgan topshiriqlar orqali bola tasavvurining kengayishi, estetik va emotsional fikrlashining shakllanishi aniq ko'rsatib berilgan. Yakunda amaliy tavsiyalar berilgan bo'lib, maqola boshlang'ich sinfda adabiyot darslarini tashkil etishda metodik qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, ijodiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, bola tasavvuri, poetik tafakkur, obrazli matn, metodik yondashuv

Özet. Bu makalede ilkökul öğrencilerinin yaratıcı düşünme becerilerini geliştirmede edebi imgelerin rolü pedagojik ve psikolojik bakış açısıyla ele alınmıştır. Özellikle şiirsel metinlerdeki sembolik anlamlar, imgeli anlatımlar ve poetik yapıların çocuk düşüncesi üzerindeki etkisi teorik temellere ve sınıf içi uygulamalara dayanılarak analiz edilmiştir. Makalede Jo'ra Rahim'in "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" adlı şiiri temel alınarak gerçekleştirilen ders örneği üzerinden, yaratıcı düşünceyi teşvik eden yöntemler önerilmiştir. Öğretmenin yaratıcı yaklaşımı ve imgeli metinlere dayalı görevler aracılığıyla çocuğun hayal gücünün genişletilmesi, estetik ve duygusal düşüncesinin oluşumu açıkça ortaya konmuştur. Sonuç olarak, uygulamalı önerilere yer verilmiş olup, makale ilkökul edebiyat derslerinin planlanmasında metodik bir kaynak olarak kullanılabilir.

Anahtar kelimeler: edebi imge, yaratıcı düşünme, ilkökul eğitimi, çocuk hayal gücü, şiirsel düşünce, imgeli metin, pedagojik yöntem

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalar shaxsining intellektual, ijtimoiy va ijodiy salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ayniqsa, bu davrda o'quvchilarda tasavvur, fantaziya, emotsional-estetik idrok va mustaqil fikrlash kabi ijodiy tafakkur elementlarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. XXI asrda ta'lim jarayoni faqat bilim va ko'nikmalarni egallatish bilan cheklanmay, balki har bir o'quvchining ichki dunyosini uyg'otish, unda mavjud bo'lgan ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarish imkoniyatlarini izlab topishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, badiiy obrazlarning didaktik imkoniyatlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Badiiy obrazlar bolaning obrazli tafakkurini faollashtiradi, murakkab hayotiy hodisalarni ramziy, emotsional va tushunarli shaklda idrok etishga yordam beradi. She'r, ertak, hikoya kabi badiiy matnlarda uchraydigan obrazlar o'quvchini o'ylashga, taqqoslashga, tasvirlashga va eng muhimi, ijod qilishga undaydi. Bu esa o'z navbatida ijodiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Bugungi boshlang'ich ta'lim tizimida bola shaxsini rivojlantirishda faqat bilim berish emas, balki uning dunyoqarashi, tasavvuri, hissiyati va estetik didini boyitish asosiy maqsadlarga aylanmoqda. Bunday yondashuvda badiiy obrazlarning o'рни va ta'sirchanligi dolzarb ilmiy-pedagogik masala sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda badiiy obrazlarning tutgan o'rnini nazariy va amaliy jihatdan yoritishga qaratilgan. Shuningdek, badiiy obrazlar orqali ijodiy o'ylashni rag'batlantiruvchi metodik yondashuvlar, amaliy mashqlar va dars jarayonidagi real misollar tahlil qilinadi. Maqola natijalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun metodik tavsiya sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ijodiy tafakkur — bu shaxsning yangilik yaratishga, mavjud bilim va tajribalarni noan'anaviy yo'llar bilan qayta ishlashga, kutilmagan yechimlar topishga qaratilgan aqliy faoliyatidir. U inson tafakkurining eng murakkab shakllaridan biri bo'lib, tahlil qilish, umumlashtirish, fantaziya qilish, bashorat qilish, tasavvur etish, moslashtirish kabi ko'nikmalar bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davri bu tafakkurning poydevori shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi.

Ijodiy tafakkurga oid birinchi nazariy asoslar rus olimi L.S. Vygotskiy tomonidan yaratilgan bo'lib, u ijodiylikni bolaning "tasavvuri" bilan bog'lagan va obrazli mushohada qilish qobiliyatini tafakkurning eng muhim shakli sifatida baholagan. Vygotskiyga ko'ra, bola hayotiy tajribasi, emotsional holati va tashqi ta'sirlar asosida badiiy tasavvurlarni shakllantiradi, bu tasavvurlar esa o'z navbatida uning ijodiy

faoliyatini uygʻotadi. Uning “Imaginativ tafakkur” haqidagi qarashlari bolalarda obrazli va estetik fikrlashning shakllanishi haqida chuqur ilmiy asos bergan.⁵

Jahon psixologiyasida J. Gilford va E. Torrance ijodiy tafakkur strukturasi tadqiq qilib, uning asosiy komponentlari – ravonlik (fluency), oʻziga xoslik (originality), moslashuvchanlik (flexibility) va tafsilotlarga boylik (elaboration) kabi elementlarini ajratib koʻrsatdilar. Ushbu elementlar bolaning erkin fikrlashi, nostandart savollar berishi, noodatiy bogʻlanishlarni koʻra olishi orqali namoyon boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida bu elementlarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratish, ayniqsa, badiiy vositalar orqali ragʻbatlantirish taʼlimning eng dolzarb vazifalaridan biridir.⁶

Ijodiy tafakkurning shakllanishida shuningdek, bolalik davrining psixologik xususiyatlari muhim rol oʻynaydi. 6–10 yosh oraligʻidagi bolalar aqliy rivojlanishning oʻziga xos bosqichida boʻlib, ular abstrakt tafakkurdan koʻra konkret-obrazli mushohadaga tayanadilar. Ularning fikrlashi koʻproq estetik, sezgi va tasavvurga bogʻliq. Shuning uchun aynan shu davrda badiiy obrazlar, sheʼrlar, ertaklar, hikoyalar orqali berilgan maʼlumotlar ularda kuchli hissiy taʼsir uygʻotib, ongida mustahkam oʻrnashadi. Psixologlar taʼkidlashicha, aynan obrazli idrok va emotsional tajriba ijodiy tafakkurning shakllanishi uchun eng samarali vositadir.

Ijodiy tafakkurga oid boshqa zamonaviy qarashlarda ham bolada “ijodiy muhit” yaratish, erkinlik, xavfsizlik hissi, qiziqish uygʻotish kabi omillar asosiy oʻringa qoʻyiladi. Masalan, amerikalik olim Teresa Amabile oʻz tadqiqotlarida ijodkorlikni rivojlantirish uchun tashqi ragʻbatdan koʻra ichki motivatsiya — yaʼni bolani qiziqitirish, unga oʻz fikrini bildirish imkonini berish muhimroq ekanligini taʼkidlaydi. Bu gʻoya maktab darslarida, ayniqsa, badiiy adabiyot va ona tili mashgʻulotlarida obrazli topshiriqlarni qoʻllash zaruriyatini koʻrsatadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda metakognitiv tafakkur tushunchasi ham muhim oʻrin egallab bormoqda. Bu bola oʻz fikrlash jarayonini kuzata olishi, uni rejalashtirishi va tahlil qilishi qobiliyatidir. Badiiy obrazlar, xususan, sheʼrlar va tasviriy ifodalar bola tafakkurida koʻp yoʻnalishli tahlil, taxmin, umumlashtirish, muqoyasa kabi jarayonlarni faollashtiradi. Shu bois ijodiy tafakkur faqat matn yozish yoki rasm chizish emas, balki tafakkur jarayonining ichki sifatini chuqurlashtirish bilan bogʻliqdir.

Yuqoridagi nazariy va amaliy mulohazalar shuni koʻrsatadiki, ijodiy tafakkur – bu tugʻma qobiliyat emas, balki toʻgʻri pedagogik yondashuv, metodik ragʻbat va psixologik

⁵ Выготский, Л. С. (1967). *Воображение и творчество в детском возрасте*. Москва: Просвещение.

⁶ Runco, M. A., & Acar, S. (2012). *Divergent thinking as an indicator of creative potential*. *Creativity Research Journal*, 24(1), 66–75. <https://doi.org/10.1080/10400419.2012.652929>

sharoitlar asosida rivojlantiriladigan murakkab jarayondir. Aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida bu jarayonning asoslari qo'yilishi, ayniqsa, obrazli ifodalar va estetik elementlar vositasida amalga oshirilishi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy obraz — bu san'at va adabiyotda estetik vositalar orqali yaratilgan, hayotiy voqelikni emotsional, obrazli va ifodaviy shaklda aks ettiruvchi ko'rinishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun obrazlar orqali berilgan mazmun ancha tushunarli, qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar atrofdagi olamni bevosita idrok qilish orqali, ya'ni his qilish, ko'rish, tasavvur etish orqali o'zlashtiradilar. Badiiy obrazlar aynan mana shu ehtiyojga javob beradi — ular bolaning tasavvurini harakatga keltiradi, his-tuyg'ularini uyg'otadi va tafakkurini faol holatga olib keladi.

Ta'limiy nuqtai nazardan qaralganda, badiiy obrazlar bilimni esda saqlashni, tahlil qilishni, tushunishni osonlashtiradi. Masalan, "Tong qushi" deb nomlangan she'r yoki "Sadoqatli it" haqidagi hikoya o'quvchida voqelikni emotsional baholash, xarakterlarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash kabi tafakkur jarayonlarini kuchaytiradi. Shuningdek, obrazlar orqali muhim tushunchalar: jasorat, sadoqat, do'stlik, rostgo'ylik kabi axloqiy qadriyatlar bolalarning ongiga chuqur singadi. She'r yoki ertak qahramonlari orqali bola bu tushunchalarni nafaqat eshitadi, balki his qiladi, ularni ichki ruhiy dunyosi bilan bog'laydi.

Tarbiyaviy nuqtai nazardan esa, badiiy obrazlar bolaning ichki dunyosini boyitadi, axloqiy qarashlarini shakllantiradi va estetik didini rivojlantiradi. Har bir obrazda yashiringan g'oya, axloqiy mazmun va ramziy ma'nolar bola ongida hayotiy vaziyatlarni o'ziga xos tarzda anglashga zamin yaratadi. Masalan, ertakdagi shafqatsiz qahramon obrazidan bola yovuzlik oqibatlarini, yaxshi inson qiyofasidan esa mehr va saxovatning hayotdagi ahamiyatini tushunadi. Bunday tarbiyaviy ta'sirlar bola tafakkurida ko'p qirrali, emotsional asoslangan axloqiy xulosalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Badiiy obrazlarning o'rganilishi faqat adabiyot darslari bilan cheklanmasligi kerak. Ularni boshqa fanlarda ham qo'llash mumkin. Masalan, "Atrof-muhit" fanida qushlar, o'simliklar yoki tabiat hodisalarini badiiy tasvirlar orqali o'rgatish o'quvchining ilmiy tafakkurini emotsional idrok bilan uyg'unlashtiradi. "Texnologiya" yoki "Tasviriy san'at" darslarida esa obrazlar orqali bolalar o'z tasavvurlarini qog'ozga tushirishga, fikrlarini ijodiy shakllantirishga o'rgatiladi. Hatto matematika fanida ham obrazli masalalar yoki personajli topshiriqlar yordamida bolaning mantiqiy fikrlash bilan birga obrazli idroki ham faollashtiriladi.

Badiiy obrazlar til o'rganish, jumladan, leksik va grammatik birliklarni mustahkamlashda ham muhim vositaga aylanadi. Ayniqsa, she'rlar va hikoyalar orqali berilgan obrazlar yordamida o'quvchi yangi so'zlarni kontekstda o'zlashtiradi, ularni his qiladi, tasavvur etadi, keyin esa erkin qo'llay boshlaydi. Bu esa ijodiy tafakkur bilan birga nutqiy faollikni ham rivojlantiradi.

Bolalar adabiyotida uchraydigan obrazlar turlicha xarakterga ega: hayvon obrazlari, buyumlar, tabiat hodisalari, odam qiyofasidagi personajlar. Ular har biri o'z funksiyasiga ega bo'lib, bolani o'ziga jalb qiladi, u bilan muloqotga kirishishga undaydi. Bu muloqotda esa bola savollar beradi, o'ylaydi, his qiladi va yaratadi — bu esa ijodiy tafakkurning tabiiy shakllanishi uchun muhim muhit yaratadi. Shu jihatdan obrazlar nafaqat estetik go'zallik, balki kognitiv faoliyatni faollashtiruvchi kuchga ega.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obrazlar o'quvchining tafakkurini faollashtiruvchi, emotsional-estetik hislarini uyg'otuvchi va axloqiy tarbiyasini mustahkamlovchi ko'p funksiyali didaktik vositadir. Ularning o'z vaqtida va to'g'ri qo'llanishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Obrazli fikrlash orqali bola dunyoni chuqurroq anglaydi, o'z tasavvurlarini erkin ifodalay oladi va bu esa uni ijodiy fikrlaydigan, mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun obrazli matnlardan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan, samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Obrazli matnlar — bu bolalarda tasavvur, ifodaviylik, hissiy ta'sir va tahliliy fikrlashni bir vaqtning o'zida faollashtiradigan vositadir. Ular orqali bola voqelikni ramziy ko'rinishda tasavvur qiladi, badiiy tilda ifodalangan fikrlarni tushunishga harakat qiladi va bu asosda o'ziga xos xulosalar chiqaradi. Aynan mana shu jarayon ijodiy tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Obrazli matnlar bilan ishlashda dars jarayonini shunchaki o'qish va savol-javob shaklida emas, balki faol fikrlashga undovchi, erkin mulohaza yuritish va tasviriy fikr bilan bog'lovchi interfaol metodlar asosida tashkil etish muhim. Misol uchun, “Agar sen shu qahramon o'rnida bo'lganingda nima qilarding?” kabi ochiq oxirli savollar o'quvchini muqobil ssenariy tuzishga undaydi. Bu esa ularning muammoli vaziyatni hal qilish, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish va o'z fikrini asoslab berish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, “Obrazni jonlantir” metodi orqali o'quvchilarga she'rdagi yoki hikoyadagi biror obraz nomidan qisqa monolog tuzish topshiriladi. Masalan, qush, daraxt, oy yoki soat nomidan “Men kimman, nimani his qilaman?” degan ssenariy asosida

o'quvchilar tasviriy nutqni yaratadi. Bu topshiriq emotsional tafakkur bilan birga stilistik va badiiy nutq elementlarini ham shakllantiradi. Bunday topshiriqlar yordamida o'quvchi obrazga kiradi, obrazli tafakkur va dramatik ifoda vositalaridan foydalanadi, bu esa ijodiy tafakkur uchun muhim psixologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Obrazli matnlar asosida ishlashda mashhur usullardan yana biri — “So‘zlarni tiriltir” texnikasidir. Bunda o'quvchilarga oddiy so‘zlar (quvonch, shamol, poyezd, yolg‘izlik) beriladi va ularga poetik yoki obrazli jumlar yaratish topshiriladi. Masalan, “Quvonch ucha boshladi”, “Shamol deraza tutqichini so‘rayotganday yelardi” kabi ifodalar orqali o'quvchilar tasvirli fikrlashga o‘rganadilar. Bu nafaqat ijodiylikni oshiradi, balki bolalarda estetik nutqni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Darsda obrazli fikrlashni shakllantirishning yana bir yo‘li — bu rasm asosida she‘r tuzish metodidir. O‘quvchilarga biror badiiy rasm, masalan, quyosh botayotgan manzara, yolg‘iz daraxt, rangli qushlar tasviri beriladi va ular shu rasm asosida qisqa she‘r yoki mini-hikoya yozadilar. Vizual obrazlardan ilhomlanish orqali fikrni poetik tarzda ifodalash bolalarda so‘zlar orqali tasvir yaratish, ranglar va shakllarga hissiy qiymat berish qobiliyatini oshiradi. Bu metod “vizual tafakkur” bilan “lingvistik tafakkur”ning uyg‘unligini ta‘minlaydi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf darslarida “Rolga kirish” texnikasi ham obrazli matn asosida samarali natija beradi. Masalan, biror ertak qahramonining o‘rnida dialog yozish yoki voqeani boshqa nuqtayi nazardan bayon etish orqali o'quvchi o‘z tasavvurini sinovdan o‘tkazadi. Bu usul o‘z fikrini kontekstga mos ravishda ifodalash, situatsion tahlil qilish, obrazli ko‘rish va o‘zini boshqa rolga qo‘yib ko‘rish (empatiya) kabi murakkab psixologik-ijodiy mexanizmlarni ishga soladi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar yordamida obrazli tafakkurni yanada faol rivojlantirish mumkin. Masalan, ChatGPT kabi sun‘iy intellekt yordamida bolalar bilan birga interaktiv hikoyalar yozish, onlayn kollaj yaratish, “Storyjumper”, “BookCreator” yoki “Canva” platformalarida o‘z she‘r kitobchalarini tuzish ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Bu orqali o'quvchilar matnga nisbatan mualliflik mas‘uliyatini his qiladilar, o‘zlarini ijodiy jarayonning ishtirokchisi sifatida anglay boshlaydilar.

Metodik tajriba shuni ko‘rsatadiki, obrazli matnlar bilan ishlash bolalarda nafaqat badiiy tafakkur, balki shaxsiy dunyoqarash, emotsional barqarorlik, axloqiy pozitsiya, so‘z boyligi, ifoda aniqligi va obrazli nutqni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. To‘g‘ri tashkil etilgan darslar bolada o‘zini anglash, fikrni erkin bayon etish va hayotni estetik jihatdan his qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinfda obrazli matnlar asosida ijodiy tafakkurni shakllantirish bo'yicha olib borilgan tajriba darslaridan biri Jo'ra Rahimning "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" nomli she'rini tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Ushbu asar 3-sinf o'qish darsligi (IV qism)ning 1-mavzusida keltirilgan bo'lib, u nafaqat axloqiy tarbiya, balki obrazli fikrlash, poetik tafakkur va assotsiativ tasavvurni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Darsning boshlang'ich bosqichida o'quvchilar she'rni tinglashdi va rollarga bo'lib ifodali o'qishdi. Keyin ularning diqqat-e'tibori "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" obrazining ramziy ma'nosiga qaratildi. O'qituvchi she'rda keltirilgan mazmunni real voqea bilan bog'lab tushuntirdi: "bir butun oy" – bu to'liq qatlama, "o'n ikki yulduz" esa o'n ikki dona chuchvarani ifodalaydi. Bu ramziy ifodaning ochilishi o'quvchilarda badiiy tafakkur bilan birga, tafsiliy tahlil qilish ko'nikmasini kuchaytirdi.

Keyingi bosqichda bolalarga topshiriq berildi: agar ular Tohir o'rnida bo'lishganida qanday javob berishar edi? Shuningdek, har bir o'quvchi kampir obrazidan kelib chiqib, uning ichki holati haqida kichik matn yozdi. Ba'zi o'quvchilar: "Kampir yig'lamadi, lekin ko'zida og'riq bor edi" yoki "Kampir aytmadi, lekin yuragida og'riq bor edi" kabi obrazli jumlar bilan javob qaytardilar. Bu ularning poetik idroki, empatiya his qilish va obrazni his etish darajasining kuchayganini ko'rsatdi.

She'r asosida "Matnni davom ettiring" mashqi ham o'tkazildi. O'quvchilardan she'r davomida qaysi nuqtada voqea o'zgartirilsa, natija boshqacha bo'lishini aniqlash so'raldi. Bu usul yordamida ular sabab-oqibat munosabatini mustaqil tahlil qilishga kirishdilar. Masalan, bir o'quvchi "Agar kampir 'bir butun oy, o'n ikki yulduz' demaganida, Tohir yeganini tan olmas edi" degan fikrni ilgari surdi.

Ushbu tajriba asosida o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholandi: 1) obrazga kirish qobiliyati; 2) ramziy ma'noni tahlil qilish; 3) matndan tashqari ifoda (dramatik dialog, ichki monolog); 4) poetik tafakkur (she'rga javoban mini-she'r yoki poetik jumlar). Natijada, darsda ishtirok etgan 25 o'quvchining 17 nafari yuqori darajada obrazli ifoda ko'nikmasini namoyon qildi, 8 nafari esa o'rtacha darajada mulohazali javoblar berdi.

Bu kabi tahliliy mashg'ulotlar bolalarda nafaqat adabiy estetikani, balki axloqiy-psixologik idrokni, dramatik tafakkur va ijodiy yondashuvni uyg'otishda beqiyos rol o'ynaydi. Ayniqsa, she'rda ishlatilgan "yarimta oy, oltita yulduz" obrazining bola ongida ochilishi — didaktik topshiriqlar orqali qiziqarli, unutilmas ijodiy tajribaga aylandi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish o'quv jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, badiiy obrazlar, ayniqsa, she'riy matnlardagi ramziy ifodalar, estetik tashbehlar va

dramatik voqealar bola tafakkurini faollashtiruvchi, tasavvurini kengaytiruvchi va nutqiy ijodini rag'batlantiruvchi kuchli didaktik vosita hisoblanadi. Aynan obrazli matnlar orqali o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalash, yangi g'oyalar yaratish, mavjud voqelikni emotsional-estetik jihatdan anglashga intiladi.

Jo'ra Rahimning "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" she'ri asosida o'tkazilgan amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, obrazli ifodalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning ramziy tafakkurini faollashtiradi, ularni savol berishga, taxmin qilishga va shaxsiy fikrini dalillar asosida bildirishga undaydi. Bu esa ijodiy tafakkurning shakllanishi va chuqurlashuvi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy obraz asosida ochiq-oxirli savollar, dramatik dialog, poetik javob yoki rasmi talqin kabi metodlar o'quvchining ko'pyoqlama fikrlashiga zamin yaratadi.

Bundan kelib chiqib, quyidagi metodik takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Badiiy obrazli matnlarni darsning markaziy elementi sifatida tanlash:** ayniqsa she'r, ertak va hikoya asosida tuzilgan darslar ijodiylikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. **Har bir obrazga nisbatan o'quvchi munosabatini mustaqil shakllantirishga imkon yaratish:** matnga savol yo'llash, obraz nomidan hikoya tuzish, uni sahnalashtirish orqali.

3. **Obrazli ifodalarni topishga qaratilgan mashqlarni muntazam qo'llash:** bu bolalarning poetik tasavvuri va til sezgirligini oshiradi.

4. **Ramziy ifodalarni ochishga yo'naltirilgan faoliyat turlarini o'tkazish:** masalan, "yarim oy" – bu nima? "yulduz" nima degani? – kabi ramzlar tahlili orqali o'quvchilarni ko'proq fikrlashga undash.

5. **She'r asosida interaktiv ishlanmalar yaratish:** darsda elektron tafakkur xaritasi, ijodiy karta yoki "obrazli daftar" yuritish orqali individual yondashuvni rag'batlantirish mumkin.

Shuningdek, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining savol berish madaniyati, o'quvchini tinglash qobiliyati va unga javob berishda bergan erkinligi muhim omil hisoblanadi. O'quvchi fikrini baholamasdan, uni mustaqil ifodalashga imkon berish — bu pedagogik erkinlik muhiti ijodiylik uchun asosiy shartdir.

Umuman olganda, badiiy obrazlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish ularning shaxsiy o'sishini, estetik didini, nutq madaniyatini va analitik fikrlash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobilova, Z., & Sobirova, I. (2025). XXI ASR SHE'RIYATIDA OY OBRAZI (SHODMONQUL SALOM SHE'RLARI MISOLIDA). *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(12), 10-13.
2. Zebo, Q. (2024). FURQATSHUNOSLIK TAKOMILIDA NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARINING O'RN. *University Research Base*, 596-599.
3. Inoyatova, D. Q. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 12, 96-98.
4. Inoyatova, D. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *University Research Base*, 103-107.
5. Inoyatova, D. (2024). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING HISSIY INTELEKTINI OSHIRISHDA KITOB O'QISHNING AHAMIYATI. *University Research Base*, 130-134.